

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU.
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2025
IJTIMOIIY
FANLAR

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

X.E.Xodjamberdiyev

Sovet hukumati tomonidan O'zbekistonda madaniyat sohasida amalga oshirilgan milliy siyosat va uning ijtimoiy oqibatlari (1945-1960-yillar) 206

J.Sultonov

Xorazmshoh va Kuchlukning raqobati: Markaziy Osiyoda siyosiy kuchlari o'rtasidagi ziddiyat 212

U.X.Gulmatov

Transport tizimining avtomobil va temir yo'l tarmoqlarini kadrlar bilan ta'minlash muammolari va yechimi..... 219

A.H.Boltayev

Buxoro tarixiy va madaniy yodgorliklarini saqlash jamiyatining faoliyatiga bir nazar 224

Sh.Qo'ldashev, B.Umarxodjayev

Farg'ona dostonchilik maktabi tarixiga doir ba'zi ma'lumotlar 228

M.F.Rasulov

Markaziy Osiyoda qadimgi arxivlar tarixi 231

A.A.Abduqahorov

XX asr boshida Turkistonda jadid matbuoti va uning jamiyatga ta'siri..... 237

ILMIY AXBOROT

D.N.Toshpo'latov

Addiktiv axloqning milliy madaniyat va an'anaviy qadriyatlarga ta'siri..... 241

F.E.Tuyev

Navoiy, Buxoro va Samarqand mintaqalariga xorijiy sarmoyalarning jalb qilinishi (1991-2008 yillar) 246



UO'K: 316.6+159.947+17.023.34

ADDIKTIV AXLOQNING MILLIY MADANIYAT VA AN'ANAVIY QADRIYATLARGA TA'SIRI**ВЛИЯНИЕ АДДИКТИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ НА НАЦИОНАЛЬНУЮ КУЛЬТУРУ И
ТРАДИЦИОННЫЕ ЦЕННОСТИ****THE IMPACT OF ADDICTIVE BEHAVIOR ON NATIONAL CULTURE AND TRADITIONAL
VALUES**

Toshpo'latov Dostonjon Nodir o'g'li 
Samarqand davlat universiteti, assistent

Annotatsiya

Mazkur maqolada yoshlarda addiktiv axloqning shakllanish va turli ko'rinishlari tahlil qilinadi. Ushbu holatlarning milliy madaniyatga va an'anaviy qadriyatlarga salbiy ta'siri yoritiladi. Addiktiv axloqni oldini olishda o'zbek jamiyatidagi ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, oilaviy tarbiya, diniy va madaniy normalarning o'rni alohida o'rganiladi. Shuningdek, yoshlar orasida uchrayotgan addiktiv holatlarning kelib chiqish omillari va ularni bartaraf etishda milliy madaniyatga asoslangan yondashuvlarning samaradorligi haqida fikr yuritiladi.

Аннотация

В данной статье анализируются формирование и различные проявления аддиктивного поведения среди молодежи. Освещается негативное влияние этих явлений на национальную культуру и традиционные ценности. Особое внимание уделяется роли духовно-нравственных ценностей, семейного воспитания, религиозных и культурных норм узбекского общества в профилактике аддиктивного поведения. Также рассматриваются причины возникновения аддиктивных состояний среди молодежи и эффективность подходов, основанных на национальной культуре, в их преодолении.

Abstract

This article analyzes the formation and various manifestations of addictive behavior among youth. It highlights the negative impact of such behaviors on national culture and traditional values. Particular attention is given to the role of spiritual and moral values, family upbringing, and religious and cultural norms in Uzbek society in preventing addictive behavior. The article also explores the causes of addictive tendencies among young people and discusses the effectiveness of culturally grounded approaches in addressing these issues.

Kalit so'zlar: Addiktiv axloq, qaramlik, milliy madaniyat, an'anaviy qadriyat, ijtimoiy normalar, ma'naviy inqiroz, oila instituti, ijtimoiy ta'sir, o'zlikni anglash, madaniy degradatsiya.

Ключевые слова: Аддиктивное поведение, зависимость, национальная культура, традиционные ценности, социальные нормы, духовный кризис, институт семьи, социальное влияние, самоосознание, культурная деградация.

Key words: Addictive behavior, addiction, national culture, traditional values, social norms, spiritual crisis, family institution, social influence, self-awareness, cultural degradation.

KIRISH

Insoniyat jamiyatsiz yashay olmaydi, jamiyat esa axloqiy me'yorlar va qadriyatlarsiz barqaror rivojlana olmaydi. Har qanday jamiyat o'z a'zolaridan ma'lum axloqiy xatti-harakatlarni kutadi, chunki axloq insonlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi eng muhim ijtimoiy vositalardan biridir.

Axloq - bu jamiyatda qabul qilingan odob-axloq qoidalari, yaxshilik va yomonlik, to'g'rilik va noto'g'rilik haqidagi qarashlar majmuidir. Jamiyat taraqqiyoti, uning ma'naviy yuksalishi va barqarorligi axloqiy qadriyatlarga sodiqlik bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli, axloq jamiyatning madaniy, diniy, siyosiy va iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutadi.

Axloq haqida gap borganda, albatta uning muayyan tuzilmasi, unga asos bo'lgan omillar, unsurlar to'g'risida to'xtalmaslik mumkin emas. Axloq tuzilmasini, odatda, uch omil-asosdan iborat deb hisoblaydilar. Bular - axloqiy ong, axloqiy hissiyot va axloqiy xatti-harakatlar [1; 51].

Axloq insonning ichki dunyosiga, odatlariga, niyatiga va boshqalar bilan bo'lgan munosabatiga bog'liq. U nafaqat qoidalar to'plami, balki shaxsiy ong va vijdon bilan ham bog'liqdir.

Axloqning salbiy shakllaridan biri addiktiv axloq hisoblanadi. Zamonaviy jamiyatda inson ruhiy va ijtimoiy salomatligiga tahdid solayotgan muammolardan biri bu - addiktiv axloq, ya'ni odatga aylangan, zararli qaramlik holatidir. Bu muammo nafaqat alohida shaxs yoki guruh darajasida, balki butun bir xalqning ijtimoiy taraqqiyoti, ma'naviy yuksalishi va madaniy o'zligini saqlab qolishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda addiktiv axloqning tobora keng tarqalib borayotgani, ayniqsa, yoshlar orasida spirtli ichimliklarga, giyohvandlikka, internet va kompyuter o'yinlariga, ijtimoiy tarmoqlarga haddan tashqari bog'lanish kabi shakllarda namoyon bo'layotgani chuqur xavotir uyg'otadi.

Bu holat milliy qadriyatlar, tarixiy tajriba va an'analar asosida shakllangan madaniyatga tahdid soladi. Chunki milliy madaniyat - bu xalqning o'zligini belgilovchi, uni boshqa millatlardan ajratib turuvchi eng muhim ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Madaniyat, avvalo, insonning fikrlash tarzi, axloqiy qoidalari, mehnatga munosabati, oila va jamiyatga bo'lgan yondashuvini o'zida mujassam etgan tizimdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Bugungi globallashuv jarayonida jamiyat a'zolari, ayniqsa yoshlar, turli tashqi axborot oqimlari, chet madaniyatining kuchli ta'siri ostida qolmoqda. Bu esa ularning ongida milliy qadriyatlarga befarqlik, an'anaviy turmush tarzini inkor etishga moyillik, o'zligidan begonalashish holatlarini yuzaga keltiradi. Aynan shu yerda addiktiv axloqning ta'siri ko'zga tashlanadi: u shaxsning nafaqat jismoniy va ruhiy salomatligiga, balki uning madaniy identikligiga, qadriyatlarga bo'lgan munosabatiga ham bevosita putur yetkazadi.

O'z-o'zini anglashni shunday ta'riflash mumkin: inson o'zini subyekt sifatida ajratib, o'z bilishini o'ziga qaratishi, o'z talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib ish yuritishi, faoliyat va ishlarini nazorat qila olishi va boshqarishi, o'z-o'ziga o'z faoliyatining borishi va natijasi haqida hisob berishi, xullas, o'zi bilishning ham subyekt, ham obyekt bo'lgan jarayonni falsafada o'z-o'zini anglash, deyiladi.

[2; 373].

Milliy madaniyat - bu xalqning tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan, uning o'ziga xos dunyoqarashi, axloqiy me'yorlari, urf-odatlar, san'ati, diniy e'tiqodi va ijtimoiy munosabatlarini aks ettiruvchi hodisa bo'lib, jamiyatning ma'naviy ustunligiga asos bo'lib xizmat qiladi. Har bir xalqning milliy madaniyati uning milliy identikligini, ya'ni o'zligini belgilovchi asosiy mezonlardan biridir. Madaniyat - bu avloddan-avlodga o'tadigan ijtimoiy tajriba, bu xalqning kimligini, qanday yashashini va nimaga ishonishini ifodalovchi ruhiy boylikdir.

An'anaviy qadriyatlar esa milliy madaniyatning ajralmas qismidir. Qadriyatlar - bu odamlar hayotida eng muhim deb topiladigan, jamiyat tomonidan ma'qullangan axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy normalardir. O'zbek xalqining qadriyatlari orasida oila va nikoh muqaddasligi, kattalarga hurmat, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, halollik, sabr-toqat, mehmondo'stlik, vatanparvarlik kabi fazilatlar alohida o'rin egallaydi. Ushbu qadriyatlar nafaqat shaxsning, balki jamiyatning ma'naviy poydevorini mustahkamlovchi kuchli omillardandir.

Milliy madaniyat va qadriyatlar jamiyatdagi har bir a'zoning shakllanishida, xususan, yosh avlodning tarbiyasida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ular shaxsning axloqiy qiyofasini, ijtimoiy faoliyatini, ong va tafakkur tarzini belgilaydi. Bunday qadriyatlar milliy g'urur va o'zligimizni anglashga xizmat qiluvchi asosiy manbaga aylanadi. [3; 198].

Afsuski, zamonaviy axborot oqimining kuchayishi, globallashuvning jadal sur'atlari, ommaviy madaniyatning chetdan kirib kelishi natijasida ko'plab an'anaviy qadriyatlar e'tibordan chetda qolmoqda. Bu esa yosh avlodning madaniy ajralishiga, o'zlikni anglashda muammolarga, hatto ma'naviy bo'shliq paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Ana shunday zaiflashgan ijtimoiy va madaniy muhitda addiktiv xulq-atvor osonlikcha o'z ildizini otishi mumkin bo'ladi.

So'nggi yillarda addiktiv axloqning shakllari va tarqalish doirasi sezilarli darajada kengaydi. Endilikda addiktsiya faqatgina spirtli ichimliklar yoki giyohvandlik bilan cheklanmaydi. Texnologik taraqqiyot, informatsion jamiyatning shakllanishi va hayot sur'atining o'zgarishi natijasida yangi addiktsiya turlari paydo bo'ldi: internetga qaramlik, onlayn o'yinlarga bog'lanish, ijtimoiy tarmoqlarga haddan tashqari berilish, smartfonlar va ekranlarga nisbatan patologik ehtiyoj - bularning barchasi zamonaviy inson psixologiyasini o'zgartirmoqda.

Masalan, internet-addiktsiya bugungi kunda yoshlar orasida eng keng tarqalgan psixologik qaramlik turiga aylanib ulgurgan. Ushbu holatda inson virtual dunyoga shu darajada bog'lanib qoladiki, real hayotdagi ijtimoiy munosabatlar, oila, o'qish yoki mehnat faoliyati ikkinchi darajaga

ILMIY AXBOROT

tushib qoladi. Onlayn o'yinlar esa yoshlarning vaqtni boshqarish qobiliyatini yo'qotishiga, real dunyodan ajralishiga va virtual muvaffaqiyatlarni hayotiy maqsadlarga aylantirib olishiga sabab bo'lmoqda. Bundan tashqari, narkotik vositalar, energiyali ichimliklar, psixotrop moddalarga qaramlik, hatto shopping (do'kon kezish), ovqatlanish, kosmetik operatsiyalar kabi faoliyatlarga haddan ortiq bog'lanish ham addiktiv axloqning zamonaviy ko'rinishlaridandir. Bu jarayonlarning xavfli jihati shundaki, ularning aksariyati jamiyatda "qonuniy" va hatto "zamonaviy" deb qabul qilinadi. Ammo bu xatti-harakatlar ortida inson psixikasining zaiflashuvi, ijtimoiy munosabatlarning yemirilishi va eng achinarlisi - milliy qadriyatlar va madaniyatning so'nib borishi yotadi.

Bunday zamonaviy addiksiya shakllari orqali yoshlar asta-sekin o'z milliy ildizlaridan, madaniy qarashlaridan, an'anaviy turmush tarzidan uzoqlashmoqda. Bu esa butun jamiyat taraqqiyoti uchun katta xavf tug'diradi, chunki kelajakni barpo qiluvchi avlod o'z tarixiy asoslari va madaniy mazmunidan uzilib qolgan bo'ladi [4; 30].

Madaniyat va xulq-atvor o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan ijtimoiy hodisalardir. Inson xulq-atvori aksariyat hollarda u yashayotgan muhit, jamiyat va madaniy qadriyatlar asosida shakllanadi. Madaniyat insonning harakatiga ma'no baxsh etadi, unga yo'nalish beradi, ijtimoiy me'yor va axloqiy cheklovlar orqali xatti-harakatlar chegarasini belgilaydi. Shu sababli shaxsning ijtimoiylashuvi - ya'ni jamiyatga moslashuvi - ko'p jihatdan milliy madaniyat va qadriyatlarga sodiqligi bilan belgilanadi.

Ammo shaxs bu madaniy me'yorlardan chetlashganida yoki ular unga yetarlicha ta'sir qilmaganda, bu bo'shliqni boshqa tashqi omillar to'ldira boshlaydi. Aynan shunday hollarda addiktiv axloq shakllanishi uchun qulay muhit yuzaga keladi. Ya'ni shaxs o'z hayotidagi ma'naviy, axloqiy, ijtimoiy kamchiliklarni kompensatsiya qilish maqsadida zararli odatlarni qabul qila boshlaydi. Bu holat ayrim yoshlar orasida spirtli ichimliklar ichish, chekish, giyohvand moddalarni iste'mol qilish, virtual dunyoga sho'ng'ish yoki haddan ortiq ijtimoiy tarmoqlarda vaqt o'tkazish orqali namoyon bo'ladi.

Shuni unutmaslik kerakki, har bir addiktiv axloq shaklining orqasida ma'lum bir ehtiyoj - sevgi, e'tibor, o'zini anglash, ijtimoiy maqom, ma'naviy muvozanat yoki ruhiy xotirjamlikka intilish yotadi. Ammo ushbu ehtiyojlar sog'lom madaniy qadriyatlar asosida qondirilmaganda, ularning o'rnini addiksiya egallaydi.

Shuningdek, addiktiv axloqning ommalashuvi butun jamiyatning madaniy muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bir guruh kishilar tomonidan qabul qilingan bu turdagi zararli odatlar vaqt o'tishi bilan jamiyatda "odatga aylangan" holatga tushib qoladi. Natijada, ilgari axloqiy jihatdan nomaqbul hisoblangan xatti-harakatlar tobora ijtimoiy me'yorga aylanadi, bu esa madaniyatning yemirilishiga olib keladi.

Milliy madaniyat va an'anaviy qadriyatlar avloddan-avlodga o'tayotganda insonning shakllanishida va tarbiyasida juda katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, yosh avlodning dunyoqarashi, axloqi va xulq-atvori jamiyatdagi qadriyatlar asosida yuzaga keladi. An'anaviy qadriyatlar yoshlarni tarbiyalashda, ularga to'g'ri yo'lni ko'rsatishda, ijtimoiy aloqalarni tartibga solishda muhim rol o'ynaydi.

O'zbek madaniyatida an'anaviy qadriyatlar oila, mehnat, kattalarni hurmat qilish, vatanparvarlik, qadr-qimmat, mehr-oqibat, sabr-toqat kabi jihatlarni o'z ichiga oladi. Ushbu qadriyatlar yoshlarni nafaqat axloqiy jihatdan shakllantiradi, balki ularning shaxsiyatini mustahkamlashga ham yordam beradi. Masalan, oila muqaddasligi, kattalarga hurmat, do'stlik va birdamlik kabi tushunchalar yosh avlodning jamiyatga foydali fuqarolar bo'lib yetishishida asosiy ko'rsatkichlarga aylanadi.

Biroq, globallashuv va madaniy birlashuv jarayonlarida yoshlar orasida an'anaviy qadriyatlarga nisbatan befarqlik yoki qarshilik ko'rsatish holatlari kuzatilmoqda. Yoshlar uchun internet va global madaniyatning o'ta ommalashuvi natijasida milliy an'analar, o'z madaniyati va tiliga bo'lgan qiziqish kamaymoqda. Bu esa o'z-o'zidan ularning axloqiy me'yorlarida o'zgarishlarga, noxush xulq-atvorlarning kengayishiga olib keladi.

Shunday qilib, yoshlarning tarbiyasida an'anaviy qadriyatlar va ularning zamonaviy dunyoqarash bilan muvozanatda bo'lishi juda muhimdir. Yoshlar o'z madaniyatini, tilini va qadriyatlarini sevrishi va ularga sodiq bo'lishi, shu bilan birga zamonaviy hayot talablariga moslashgan holda rivojlanishi kerak. Bu muvozanatni saqlash esa ijtimoiy barqarorlikni, milliy ma'naviyatni va jamiyatdagi uyg'unlikni ta'minlashga yordam beradi.

Zamonaviy jamiyatda madaniyatning zaiflashuvi - bu avvalo, ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlarning, globalizatsiyaning va texnologiyalarning kiritilishi bilan bog'liq jarayonlarning natijasidir. Aksariyat hollarda madaniyatning zaiflashuvi yangi texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshiriladigan, ba'zan esa faqat moliyaviy manfaatlarga asoslangan yangi qadriyatlar va ideal holatlarning joriy qilinishi bilan bog'liq. Shu tariqa, milliy va an'anaviy qadriyatlar o'rniga "universal" yoki "global" qadriyatlar, hech bo'lmaganda, yoshlarning ongiga zararlari ko'rsatishda o'z ta'sirini o'tkazmoqda.

Masalan, yoshlarning virtual olamga bo'lgan qaramligi, real hayotdagi axloqiy me'yorlarga bo'lgan e'tiborni pasaytirishi, shuningdek, ba'zi yoshlar orasida "muvaqqafiyat" va "baxt" tushunchalarining umuman boshqacha talqin qilinishi xavf tug'dirmoqda. Aksariyat hollarda global madaniyatning ko'rsatmalari yoki reklamalar orqali yoshlarni o'z milliy o'zligini inkor etishga undaydigan, ma'naviy va axloqiy jihatdan xatoliklar bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlarda yoshlarning e'tiborini o'ziga jalb qilish uchun zararli axborot va modellar tarqatiladi. Bunday holatlarda addiktiv axloqning paydo bo'lishi ham tabiiy ravishda ro'y beradi. Misol uchun, yoshlar o'z orzu va maqsadlarini amalga oshirish o'rniga internetda vaqt o'tkazishga yoki zararli odatlarga qaram bo'lishga moyil bo'lishadi. Bu, o'z navbatida, ularning real ijtimoiy munosabatlarini, oila bilan aloqalarini va jamiyatga bo'lgan mas'uliyatini buzadi. Shunday qilib, milliy qadriyatlarning yo'qolishi va jamiyatdagi madaniy zaiflashish, addiktiv axloqning kengayishiga sabab bo'ladi.

Madaniyatning zaiflashuvi nafaqat shaxslar darajasida, balki butun jamiyat uchun ham jiddiy ijtimoiy oqibatlarga olib keladi. Agar madaniyat va qadriyatlar zaiflashsa, jamiyatda axloqiy va ma'naviy inqiroz yuzaga kelishi mumkin. Bu esa o'z navbatida, jamiyatning ko'plab ijtimoiy tizimlarining - ta'lim, oila, ish joylari, hatto diniy tashkilotlarning ishlashiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Addiktiv axloqning ijtimoiy oqibatlari jamiyatning barqarorligi va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Addiktsiya, ayniqsa, yoshlar orasida tarqalganida, uning salbiy ta'siri ko'plab sohalarida, jumladan, ta'lim, iqtisodiyot, sog'liqni saqlash va ijtimoiy aloqalar sohalarida sezilarli bo'ladi. Addiktiv axloq keng tarqalishi, ayniqsa, milliy qadriyatlarning zaiflashishiga, shaxsiy mas'uliyatni yengillashishiga, va ijtimoiy me'yorlarning buzilishiga olib keladi.

1. Ta'lim tizimi: Addiktsiya o'quvchilarning o'qishdagi diqqatini va motivatsiyasini pasaytiradi. Masalan, o'quvchilarni internetga yoki video o'yinlarga qaramlik, ularning o'quv jarayonida passivlikka olib keladi, bu esa ta'lim sifatining pasayishiga sabab bo'ladi. Bu nafaqat individual talabaning o'z rivojlanishiga, balki butun ta'lim tizimining samaradorligiga ham salbiy ta'sir qiladi. Yoshlarning ta'lim olishdagi faolligi va o'zlashtirish darajasi pasayib, kelajakda yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashda qiyinchiliklar yuzaga keladi.

2. Iqtisodiyot: Addiktiv axloqning tarqalishi insonning mehnatga bo'lgan motivatsiyasini kamaytiradi. Giyohvand moddalar yoki texnologik addiktsiya, masalan, ijtimoiy tarmoqlarga haddan ortiq berilish, ish joylarida samaradorlikni pasaytiradi, ishchilarni o'z vaqtini behuda sarflashga olib keladi. Shunday qilib, mehnat resurslarining samarali ishlatilmasligi iqtisodiy o'sishga to'sqinlik qiladi. Bu esa jamiyatning iqtisodiy salohiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

3. Sog'liqni saqlash: Addiktiv axloqning salbiy ta'siri odamning jismoniy va ruhiy salomatligiga zarar yetkazadi. Giyohvand moddalar yoki spirtli ichimliklar kabi moddalar bilan bog'liq addiktsiya, odamning sog'liqni saqlash tizimiga katta yuk soladi. Yaratilgan psixologik va fiziologik ziyonlar nafaqat individual darajada, balki butun jamiyatning sog'liqni saqlash tizimi uchun katta moliyaviy xarajatlarga olib keladi.

4. Ijtimoiy aloqalar: Addiktiv axloq, ayniqsa, yoshlar orasida, oila va ijtimoiy munosabatlarni zaiflashtiradi. Yoshlar vaqtlarini zararli odatlarga, masalan, internetga yoki video o'yinlarga sarflar ekan, ular o'z ota-onalari bilan suhbatlashishdan, o'z do'stlari bilan sifatli vaqt o'tkazishdan va ijtimoiy aloqalar o'rnatishdan yiroqlashadi. Bu ijtimoiy izolyatsiya, depressiya va boshqa ruhiy kasalliklarning rivojlanishiga sabab bo'ladi. [5; 112].

Madaniy o'zlikni saqlash va addiktsiya bilan kurashish, jamiyatning ma'naviy va axloqiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qilishi kerak. Bu jarayonda milliy qadriyatlarning ahamiyatini anglash, yoshlarni tarbiyalash va axloqiy me'yorlarga rioya qilishni o'rgatish juda muhimdir. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va global madaniyatning ta'siri ostida o'ziga xos shaxsiy va ijtimoiy identifikatsiyani saqlab qolish uchun quyidagi yondashuvlar tavsiya etiladi:

1. Yoshlarni tarbiyalashda milliy qadriyatlarni integratsiya qilish: Madaniyat va qadriyatlarni saqlashda ta'lim tizimi muhim rol o'ynaydi. Ta'lim jarayonida milliy an'analarga asoslangan axloqiy

ILMIY AXBOROT

va ma'naviy saboqlarni o'rgatish, yoshlarni o'z milliy madaniyatini sevishtga va uni boshqalar bilan baham ko'rishga undash zarur. Masalan, o'quv dasturlariga milliy qadriyatlar, tarixiy meros, urf-odatlar va diniy e'tiqodlar bilan bog'liq mavzularni kiritish, yoshlarni milliy o'zlikni anglashga yordam beradi. Bu jarayonni faqat o'qituvchilar emas, balki ota-onalar va jamiyatning boshqa a'zolari ham qo'llab-quvvatlashi kerak.

2. Addiktsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish: Addiktiv axloqning oldini olishda ijtimoiy, psixologik va tibbiy yondashuvlarni birlashtirish zarur. O'quv yurtlarida, oilalarda va jamoalarda yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini, axloqiy me'yorlarga rioya qilishni targ'ib qilish muhimdir. Shuningdek, zararli odatlarni kamaytirish uchun psixologik yordam, giyohvandlikni davolash markazlari va ijtimoiy xizmatlar faoliyatini kuchaytirish zarur. Yurtimizda o'tkaziladigan turli xil treninglar, seminarlar va targ'ibot tadbirlari yoshlarni zararli odatlardan saqlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

3. Texnologiyalardan to'g'ri foydalanishni o'rgatish: Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, ayniqsa internetdan foydalanishning salbiy ta'sirlaridan qochish uchun yoshlarni o'z vaqtlarini boshqarishni o'rgatish zarur. O'quv dasturlariga texnologiyalarni oqilona va samarali ishlatish bo'yicha kurslar kiritilishi kerak. Bunda internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda o'z-o'zini nazorat qilish, maqsadga yo'naltirilgan foydalanish va vaqtni behuda sarflamaslikka oid ko'nikmalarni shakllantirish muhimdir.

4. Oila va jamiyatning o'rnini: Oila va jamiyat yoshlarni tarbiyalashda, shuningdek, ularni addiktiv axloqdan saqlashda asosiy kuchdir. Ota-onalar o'z farzandlariga mas'uliyatli bo'lishni, vaqtni to'g'ri tashkil qilishni, do'stlar va oila bilan sifatli vaqt o'tkazishni o'rgatishlari lozim. Jamiyatda bir-birini qo'llab-quvvatlash, hurmat qilish va yordam berish muhitini yaratish orqali yoshlar ijtimoiy izolyatsiyadan saqlanadi va salbiy odatlardan uzoq turadilar.

XULOSA

Madaniyatni saqlash va rivojlantirish, addiktsiya bilan kurashishda faqat yoshlar bilan ishlashdan iborat emas, balki jamiyatning barcha qatlamlarini jalb qilishni talab qiladi. Madaniy qadriyatlarni mustahkamlashning asosiy yo'llaridan biri, an'anaviy qadriyatlarning o'rganilishi va bu qadriyatlarning jamiyatda qabul qilinishidir. Milliy madaniyat va an'anaviy qadriyatlar ijtimoiy barqarorlikni, tinchlikni va mustahkam ijtimoiy aloqalarni ta'minlaydi, shuningdek, ijtimoiy addiktsiyaning oldini olishda katta ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. La'lixon Muhammadjanova Abdulla Sher Gulchexra Shadimetov. Axloq falsafasi. Darslik. Toshkent-2023. B-51
2. E. Yusupov FALSAFA (o'quv qo'llanma) Toshkent-1999 yil B-373.
3. Ergashev, B. Milliy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi O'zbekiston-2015. B-198.
4. Xusenova, D.M. Addiktiv xulq-atvor psixologiyasi Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti-2020-yil. B-126.
5. Ravshanova, M. Yoshlar va ijtimoiy muammolar: sotsiologik tahlil. Toshkent: "Iqtisod-Moliya" nashriyoti-2018.

B-112.